



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SAMARQAND VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*2025-yil yanvar-fevral oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
(66) 235-65-80*



TASHQI SAVDO AYLANMASI

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2025-yil yanvar-fevral oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **445,7 mln AQSh** dollariga yetdi va 2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **24,0 mln AQSh** dollariga yoki **5,1 %** ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024-yil yanvar-fevral, mln AQSh dollari)

Tashqi savdo aylanmasi

2025-y.: **445,7 (-5,1 %)**

(2024-y.: **469,7**)



Saldo

2025-y.: **-205,4** (2024-y.: **-260,9**)




Eksport

2025-y.: **120,2 (+15,1 %)**

(2024-y.: **104,4**)

TSA'dagi ulushi



Import

2025-y.: **325,5 (-10,9%)**

(2024-y.: **365,3**)











73,0

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

TSAda eksport hajmi 120,2 mln AQSh dollariga (2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 15,1 % ga ko‘paydi) va import hajmi 325,5 mln AQSh dollariga (10,9 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 205,4 mln AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



SAMARQAND VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2025-yil yanvar-fevral, mln AQSh dollari)

<p>Rossiya</p> <p>TSA – 105,0</p> <p>Eksport: 39,0 Import: 66,0</p>  23,6 %	<p>XXR</p> <p>TSA – 98,0</p> <p>Eksport: 15,3 Import: 82,7</p>  22,0 %	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 32,4</p> <p>Eksport: 4,7 Import: 27,7</p>  7,3 %	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 26,4</p> <p>Eksport: 6,2 Import: 20,2</p>  5,9 %	<p>Hindiston</p> <p>TSA – 18,4</p> <p>Eksport: 1,8 Import: 16,6</p>  4,1 %
<p>Tojikiston</p> <p>TSA – 11,2</p> <p>Eksport: 9,2 Import: 2,0</p>  2,5 %	<p>Polsha</p> <p>TSA – 11,0</p> <p>Eksport: 0,3 Import: 10,7</p>  2,5 %	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 10,8</p> <p>Eksport: 2,1 Import: 8,7</p>  2,4 %	<p>Litva</p> <p>TSA – 9,1</p> <p>Eksport: 0,7 Import: 8,4</p>  2,0 %	<p>Latviya</p> <p>TSA – 8,8</p> <p>Eksport: 0,5 Import: 8,3</p>  2,0 %



SAMARQAND VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-fevral, mln AQSh dollari)

Davlatlar	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Rossiya	90,8	124,6	105,0
<i>Eksport</i>	27,4	32,6	39,0
<i>Import</i>	63,4	91,9	66,0
XXR	58,6	109,5	98,0
<i>Eksport</i>	5,4	13,6	15,3
<i>Import</i>	53,2	95,9	82,7
Qozog‘iston	47,4	39,4	32,4
<i>Eksport</i>	9,9	10,2	4,7
<i>Import</i>	37,6	29,2	27,7
Turkiya	31,8	35,5	26,4
<i>Eksport</i>	6,4	7,4	6,2
<i>Import</i>	25,4	28,1	20,2
Hindiston	5,8	11,3	18,4
<i>Eksport</i>	0,0	1,7	1,8
<i>Import</i>	5,8	9,6	16,6
Tojikiston	10,7	10,7	11,2
<i>Eksport</i>	9,9	9,5	9,2
<i>Import</i>	0,8	1,2	2,0
Polsha	9,9	9,1	11,0
<i>Eksport</i>	0,6	0,7	0,3
<i>Import</i>	9,3	8,4	10,7
Germaniya	5,8	12,9	10,8
<i>Eksport</i>	0,4	0,9	2,1
<i>Import</i>	5,4	12,0	8,7
Litva	6,0	7,3	9,1
<i>Eksport</i>	0,9	0,4	0,7
<i>Import</i>	5,1	6,9	8,4
Latviya	5,5	5,4	8,8
<i>Eksport</i>	0,3	0,2	0,5
<i>Import</i>	5,2	5,2	8,3

Davlatlar	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Gruziya	4,8	5,6	8,5
<i>Eksport</i>	0,8	0,7	1,5
<i>Import</i>	4,0	4,9	7,0
Eron	7,8	6,0	7,9
<i>Eksport</i>	0,6	1,2	0,8
<i>Import</i>	7,2	4,8	7,1
Afg'oniston	1,5	3,5	7,7
<i>Eksport</i>	1,3	2,7	7,3
<i>Import</i>	0,2	0,7	0,4
Ozarbayjon	3,1	5,7	7,5
<i>Eksport</i>	2,6	4,4	6,1
<i>Import</i>	0,5	1,3	1,4
BAA	1,3	9,7	6,3
<i>Eksport</i>	0,6	6,4	5,4
<i>Import</i>	0,7	3,2	0,9
Italiya	5,6	2,0	5,9
<i>Eksport</i>	0,8	0,4	0,3
<i>Import</i>	4,8	1,6	5,6
Sloveniya	14,2	11,3	5,5
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	14,2	11,3	5,5
Yaponiya	9,9	6,3	5,3
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,2
<i>Import</i>	9,9	6,3	5,1
Lyuksemburg	0,0	0,0	4,4
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	0,0	4,4
Ukraina	1,5	2,7	4,4
<i>Eksport</i>	0,5	1,4	0,8
<i>Import</i>	1,0	1,3	3,6




SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI * (2025-yil yanvar-fevral, mln AQSh doll.)



ViLOYat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri 48,2 % ulush bilan 214,8 mln AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shrabot tumani 0,5 % ulush bilan 2,2 mln AQSh dollarini tashkil etdi.

SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, ulushi % da, hajmi mln AQSh dollarida)



2025-yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 38,9 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi o'zgarish sur'ati esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 89,4 % ni tashkil etdi.

Samarqand viloyati bilan savdo qilayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti o'sishi mazkur mamlakatlar iste'molchilari tomonidan viloyat eksportiga bo'lgan talabning oshishiga olib kelishi mumkin.

Samarqand viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2025-yilning yanvar-fevral oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 98,7 % ni va jami TSAdagi ulushi 61,1 % ni tashkil etdi.

Samarqand viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2025-yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, 173,3 mln AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 68,3 mln AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import 105,0 mln AQSh dollari qiymatida qayd etildi.



SAMARQAND VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2025-yil yanvar-fevral, ulushi, % da)

Rossiya – 60,6



Qozog'iston – 18,7



Tojikiston – 6,4



Ozarbayjon – 4,3



Ukraina – 2,5



Qirg'iz Respublikasi – 2,5



Turkmaniston – 1,9



Belarus – 2,1



Armaniston – 0,5



Moldova – 0,5




MDHning erkin savdo hududida savdo qilish Samarqand viloyatining umumiy tashqi savdo aylanmasiga ijobiy tas'ir qilmoqda.

Samarqand viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori ulushlari Rossiya (60,6%), Qozog'iston (18,7%) hamda Tojikiston (6,4%) davlatlari bilan qayd etildi.

SAMARQAND VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2025-yil yanvar-fevral, mln AQSh dollari)



Samarqand viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 146,2 mln AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 49,8 mln AQSh dollari, import hajmi esa 96,4 mln AQSh dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



SAMARQAND VILOYATINING EKSPORTI

(2025-yil yanvar-fevral)

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 364 taga yetdi va ular tomonidan 120,2 mln AQSh dollari qiymatidagi (2024-yilning mos davriga nisbatan 15,1% ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2025-yil yanvar-fevral)



47,2 %

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,6 %

2. Ichimliklar va tamaki



2,3 %

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



3,5 %

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar



4,1 %

5. Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar



0,7 %

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



24,7 %

7. Sanoat tovarlari



3,8 %

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



5,1 %

9. Turli xil tayyor buyumlar



8,1 %

12. Xizmatlar

*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlar XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI *(yanvar-fevral, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	MIn AQSh dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Jami eksport	104,4	120,2	127,2	115,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	37,3	56,7	112,1	152,0	35,7	47,2
Ichimliklar va tamaki	0,03	0,7	2,9	19,6 m.	0,0	0,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,6	2,7	137,4	75,0	3,5	2,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3,58	4,2	-	118,8	3,4	3,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,4	5,0	10,9 m.	3,5 m.	1,4	4,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1,2	0,9	2,1 m.	70,8	1,2	0,7
Sanoat tovarlari	36,5	29,7	158,6	81,3	34,9	24,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	6,3	4,5	74,4	72,4	6,0	3,8
Turli xil tayyor buyumlar	7,8	6,1	92,5	78,3	7,4	5,1
Xizmatlar	6,7	9,7	151,0	144,9	6,4	8,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 91,9% ni tashkil etib, ulardan eng yuqorilari oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (47,2%), sanoat tovarlari (24,7%), turli xil tayyor buyumlar (5,1%) va hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar (4,1%) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI
(2025-yil yanvar-fevral)

XSST bo'limi nomi	mln AQSh dollari	2024-yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	56,7	152,0
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Sabzavotlar va mevalar	47,7	164,7
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	3,9	2,7 m.
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	3,1	75,2
Ichimliklar va tamaki	0,7	19,6 m.
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Ichimliklar	0,7	19,6 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2,7	75,0
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1,7	60,1
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	0,8	161,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4,2	118,8
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	4,2	118,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	5,0	3,5 m.
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
O'simliklar moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	5,0	3,5 m.
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,9	70,8
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,4	63,3


XSST bo'limi nomi	mIn AQSh dollari	2024-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	29,7	81,3
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	11,1	107,6
Rangli metal	7,9	78,2
Cho'yan va po'lat	6,2	47,7
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2,7	118,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	4,5	72,4
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Avtomobillar	2,4	50,7
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari, boshqa joyda tasniflanmagan	1,2	119,6
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar, asbob - uskunalar lar va ularning ehtiyot qismlari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,7	123,5
Turli xil tayyor buyumlar	6,1	78,3
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	4,9	71,5
Poyafzal	0,6	106,4
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	0,5	2,3 m.
Xizmatlar	9,7	144,9
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli xizmatlar		
Transport xizmatlari	3,6	120,3
Turizm xizmatlari	2,7	110,7

Samarqand viloyati savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda – tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda – tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2025-yilning yanvar-fevral oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,1 % ga kamaygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-fevral, ulushi % da, hajmi mln AQSh dollari)



2025-yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Tojikiston, Afg'oniston, Turkiya, Ozarbayjon va BAA kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 73,6 % ni tashkil etdi.



SAMARQAND VILOYATINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2025-yil yanvar-fevral)






SAMARQAND VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-fevral)*

Davlatlar	Mln AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.
Rossiya	32,6	39,0	118,9	119,6	1	1
XXR	13,6	15,3	2,5 m.	112,2	2	2
Tojikiston	9,5	9,2	96,0	96,9	4	3
Afg'oniston	2,7	7,3	2,1 m.	2,7 m.	9	4
Turkiya	7,4	6,2	114,6	84,5	5	5
Ozarbayjon	4,4	6,1	167,2	139,5	7	6
BAA	6,4	5,4	11,3 m.	84,4	6	7
Qozog'iston	10,2	4,7	104,0	45,8	3	8
Qirg'iziston	2,8	3,4	89,1	122,8	8	9
Belarus	1,2	2,6	82,9	2,2 m.	12	10
Germaniya	0,9	2,1	2,5 m.	2,3 m.	15	11
Turkmaniston	1,1	2,1	88,7	190,3	14	12
AQSh	0,9	1,8	141,2	2,1 m.	16	13
Hindiston	1,7	1,8	-	107,7	10	14
Pokiston	0,2	1,5	15,0	9,9 m.	29	15
Gruziya	0,6	1,5	81,3	2,3 m.	20	16
Iroq	0,9	1,0	2,1 m.	113,5	17	17
Ukraina	1,4	0,8	2,9 m.	61,0	11	18
Eron Islom Respublikasi	1,2	0,8	2,0 m.	67,2	13	20
Fransiya	0,0	0,7	15,7 m.	29,7 m.	43	21

SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI *

(2025-yil yanvar-fevral, mln AQSh doll.)



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri 30,6 % bilan 36,8 mln AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shrabot tumani 0,4 % bilan 0,4 mln AQSh dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2025-yil yanvar-fevral oylarida 29,9 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 25,7% yoki 6,1 ming tonnaga ko'paydi.


2025-yil yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 32,5 mln AQSh dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 42,0% ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 27,0% ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (28,6%), XXR (20,0), Ozarbayjon (8,8%) hamda Turkiya (7,6%) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2025-yil yanvar-fevral, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2025-yil yanvar-fevral)

Davlatlar	Ming tonna	Mln AQSh dollari	Ulushi, % da *
 Rossiya	8,1	9,3	28,6
 XXR	5,0	6,5	20,0
 Ozarbayjon	1,4	2,8	8,8
 Turkiya	2,2	2,5	7,6
 Belarus	1,0	1,3	4,0
 Gruziya	1,9	1,2	3,6
 Iroq	4,4	1,0	3,1
 Eron Islom Respublikasi	0,5	0,7	2,3
 Ukraina	0,9	0,7	2,2
 Fransiya	0,3	0,7	2,2
 Germaniya	0,1	0,6	1,7
 Litva	0,3	0,6	1,7
 BAA	0,3	0,5	1,6
 Braziliya	0,4	0,4	1,3
 Saudiya Arabistoni	0,2	0,4	1,3
 Boshqa davlatlar	2,9	3,3	10,1

* qiymat ifodasidan

2025-yil yanvar-fevral oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiyaga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 28,6% ini), bu esa XXR eksport hajmiga nisbatan 2,8 mln AQSh dollariga ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2025-yil yanvar-fevral oyi yakuni bo‘yicha 10,3 mln AQSh dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 8,6 % ini tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan 15,3 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik mahsulotlari (46,4 %), gilamlar (18,6 %) asosiy ulushni egallagan.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

2025-yil yanvar-fevral, mln AQSh dollari, % da.



10,3 (2024 y.: 12,2)

Jami



4,8 (6,6)

Tayyor trikotaj va tikuvchilik mahsulotlari



1,9 (2,4)

Gilamlar



1,7 (1,0)

Boshqa to‘qimachilik mahsulotlari



0,8 (1,0)

NAQShli mato



0,7 (1,1)

Ipak va ipak mahsulotlari



SAMARQAND VILOYATINING IMPORTI

2025-yilning yanvar-fevral oylarida import hajmi 325,5 mln AQSh dollariga yetdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 10,9% ga kamaydi. Import tarkibida eng katta ulush, kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (33,7%), sanoat mahsulotlari (24,7%) hamda mashinalar va transport asbob-uskunalari (20,0%) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2025-yil yanvar-fevral)



9,8%

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,2%

2. Ichimliklar va tamaki



2,8%

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



3,5%

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar



3,2%

5. Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va muvlar



33,7%

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



24,7%

7. Sanoat tovarlari



20,0%

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



1,8%

9. Turli xil tayyor buyumlar



0,4%

11. Xizmatlar

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025-yilning yanvar-fevral oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 40,2 mln AQSh dollariga kamaydi va 324,4 mln AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1,2 mln AQSh dollariga yetdi.

*Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlar XSST bo'yicha kodlashirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-fevral yillar kesimida)

XSST tarkibi	MIn AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Jami import	365,3	325,5	127,5	89,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	29,0	32,0	100,8	110,3	7,9	9,8
Ichimliklar va tamaki	0,2	0,5	-	2,8 m.	0,1	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	12,7	9,0	120,6	70,9	3,5	2,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	5,2	11,5	94,1	2,2 m.	1,4	3,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	6,7	10,4	64,0	155,3	1,8	3,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	99,1	109,6	115,6	110,5	27,1	33,7
Sanoat tovarlari	101,6	80,3	153,9	79,0	27,8	24,7
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	103,1	65,2	143,3	63,2	28,2	20,0
Turli xil tayyor buyumlar	6,9	5,9	99,0	85,3	1,9	1,8
Xizmatlar	0,8	1,2	164,2	152,4	0,2	0,4

**XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR
IMPORTI TARKIBI (2025-yil yanvar-fevral)**

XSST bo'limi nomi	mln AQSh dollari	2024-yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	32,0	110,3
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Meva va sabzavotlar	11,7	135,5
Hayvonlar uchun ozuqalar	8,7	84,0
Go'sht va go'sht mahsulotlari	3,2	2,6 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2,6	48,8
Ichimliklar va tamaki	0,5	2,8 m.
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Ichimliklar	0,5	2,8 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	9,0	70,9
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	2,9	51,2
Probka va yog'och-taxtalar	2,0	114,3
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	1,3	142,2
Qog'oz massasi va makulatura	1,1	89,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	11,5	2,2 m.
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	7,9	152,5
Ko'mir, koks va briketlar	0,9	26,2 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	10,4	155,3
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
O'simlik moyi va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	10,4	164,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	109,6	110,5
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	78,6	107,7
Birlamchi shakldagi plastmassalar	15,7	142,6
Organik kimyo moddalari	5,3	129,0


XSST bo'limi nomi	mln AQSh dollari	2024-yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	80,3	79,0
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Cho'yan va po'lat	48,7	69,8
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	11,0	77,8
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	6,9	154,0
Metaldan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	6,3	148,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	65,2	63,2
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'jallangan mashinalar	29,1	2,4 m.
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	16,3	35,8
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	9,8	65,3
Turli xil tayyor buyumlar	5,9	85,3
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2,2	99,3
Maxsus ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	1,6	67,4
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1,0	84,3
Poyabzal	0,6	122,4
Xizmatlar	1,2	152,4
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli xizmatlar		
Transport xizmati	0,9	114,1

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2025-yil yanvar-fevral natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 32,3% ni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 3,4 %ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-fevral ulushi % da, hajmi mln AQSh dollarida)



2025-yil yanvar-fevral oylarida Samarqand viloyati 76 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Hindiston, Polsha va Germaniya) jami importning 71,5 % ini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2025-yil yanvar-fevral)






SAMARQAND VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-fevral)

Davlatlar	MIn AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.
XXR	95,9	82,7	180,2	86,3	1	1
Rossiya	91,9	66,0	145,1	71,8	2	2
Qozog'iston	29,2	27,7	77,6	94,9	3	3
Turkiya	28,1	20,2	111,0	71,7	4	4
Hindiston	9,7	16,6	166,6	171,9	7	5
Polsha	8,4	10,8	91,2	128,0	8	6
Germaniya	11,9	8,7	2,2 m.	72,4	5	7
Litva	6,9	8,4	134,7	121,8	9	8
Latviya	5,2	8,3	98,7	160,5	11	9
Eron Islom Respublikasi	4,8	7,1	67,4	147,1	13	10
Gruziya	4,9	7,0	124,6	142,2	12	11
Italiya	1,6	5,7	33,4	3,5 m.	25	12
Sloveniya	11,3	5,5	79,2	49,1	6	13
Yaponiya	6,3	5,1	63,8	80,2	10	14
Lyuksemburg	0,01	4,4	13,8 m.	586,7 m.	69	15
Ukraina	1,3	3,6	125,6	273,8	30	16
Niderlandiya	2,5	3,4	131,2	135,2	18	17
Bangladesh	3,8	2,6	99,4	67,6	15	18
Vengriya	2,2	2,4	134,4	107,1	20	19
Pokiston	0,9	2,2	48,6	2,3 m.	34	20



SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI HAJMI (2025-yil yanvar-fevral, mln AQSh doll.)



2025-yil yanvar-fevral


2024-yil yanvar-fevral

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri 54,7 % bilan 177,9 mln AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Paxtachi tumani 0,1 % bilan 0,3 mln AQSh dollarini tashkil etdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

2025-yil yanvar-fevral oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 80,3 mln AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,0 % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 24,7 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2025-yil yanvar-fevral)

30,4 mln AQSh doll.
Ulushi – 37,9 %



Rossiya

26,8 mln AQSh doll.
Ulushi – 33,4 %



XXR

10,4 mln AQSh doll.
Ulushi – 13,0 %



Qozog'iston

6,3 mln AQSh doll.
Ulushi – 7,8 %



Turkiya

1,8 mln AQSh doll.
Ulushi – 2,3 %



Bangladesh

Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (48,7 mln AQSh dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (11,0 mln AQSh dollari), rezina buyumlari (6,9 mln AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.